Mamlakatda xalqaro turizmni samarali rivojlantirishda turizm siyosatini tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlari	1101
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich	
Raqamli moliya va to'lov tizimlari	1105
Maqsud Rustamov, Nurijahon Valiqulova	
Iqtisodiy tahlilda ishlab chiqarish hajmini prognozlash masalalari	1110
Qlichev Baxtiyor Pardayevich	
Kichik biznesning mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri: Toshkent viloyati tajribasi	1116
Ajamilova Nigora Asametdinovna	
To'qimachilik korxonalarida xomashyo ta'minoti tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	1121
Umarxodjayeva Arafatxon Muzaffar qizi	
Kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik masalalarini boshqarish masalalari	1126
Jo'raqulova Muhlisa Jahongir qizi	
Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini soliq nazorati mexanizmi asosida tartibga solish masalalari	1131
Bozorov Anvar Omanovich	
Tadbirkorlik subyektlarining eksport imkoniyatlarini oshirish masalalari	1139
Umarova Munira Muxitdinovna	



O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmining holati	1143
Naimov Saidjon Yusup o'g'li	
Surxondaryo viloyatida dorivor o'simliklarni yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....	1148
Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning dolzarb masalalari.....	1155
Axunova Ma'rifat Xakimovna	
Oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi	1159
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda ta'lim va malaka oshirishning roli.....	1166
Madalievna Nodira Miradilovna	
Davlat korxonalari moliyaviy samaradorligining amaldagi holatini kompleks taqqoslama tahlili	1169
Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li	
Xalqaro mehnat migratsiyasi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar: samaradorlikni solishtirish	1174
Sultanov Anvar Abdullaevich	
O'zbekiston soliq tizimida hududlararo soliq salohiyatini boshqarish	1180
Aipova Iroda Ikromovna	
Tijorat banklarida komplaens auditni tashkil etish va o'tkazishning uslubiy asoslari.....	1184
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
Scientific approach to the formation of a sustainable development strategy for industrial enterprises in the digital economy.....	1190
Maxsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rni.....	1194
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini statistik va ekonometrik tahlil qilish (Andijon viloyati misolida).....	1206
Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li	
Перспективы инвесторов в осуществлении инвестиционного процесса	1212
Муртазаев Ардашер Зафар угли	
Transport korxonalarida ishchi xodimlarni barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlash boshqaruvini takomillashtirish	1216
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
O'zbekiston Respublikasi yengil sanoat tashkilotlarida investitsiya loyihalarni ishlab chiqish va samaradorligini oshirish.....	1221
Xurramova Madina Mansur qizi	
Fuzzy integrals in economics.....	1228
Aymuratov Islam Kamalatdinovich	
O'zbekistonda ipoteka kreditlari bozorining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari	1233
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
Совершенствование денежно-кредитной политики центрального банка в условиях цифровой экономики.....	1238
Бердиназаров Зафар Улашович, Исаев Атабек Джурабаевич	
The role of digital assets in international finance and their impact on the global economy	1248
Juraeva Ra'no Abdullaevna, Murodaliyev Shahroz Obidjonovich	
Diversification of financial resources in commercial banks and their innovative management methods in digital transformation	1255
Xodjayeva Jeyrona Ravshonbek qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili	1262
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini boshqarish va daromadligini oshirish masalalari	1268
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
What is the economic impact of Uzbekistan's integration into international financial institutions.....	1283
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	



Kredit portfelini tahlil qilish asosida tijorat banklari faoliyatini optimallashtirish yo'llari	1289
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
Agrosanoat klasterlarida xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olishni rivojlantirish	1295
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini takomillashtirish	1300
Xonimqulov Islom Ergash o'g'li	



OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Xonimqulov Islom Ergash o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID ID:0009-0001-9983-1829

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobining nazariy va uslubiy asoslari o'rganilgan. Moliyalashtirishning eng asosiy shakli bo'lgan o'qitishning to'lov-kontrakt shakli mablag'lari bo'yicha xarajatlarning vujudga kelishi, ularning tahliliy jihatlari hamda hisobini yuritish amaliyoti o'rganilgan. O'qitish xizmati faoliyati bilan bog'liq xarajatlarni guruhlashtirish uchun hisob ishlarida tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, oliy ta'lim tashkiloti, hisob, xarajat, hisobot, o'qitish faoliyati.

Abstract: This article studies the theoretical and methodological foundations of cost accounting in higher education institutions. The emergence of costs for the payment-contract form of education, which is the main form of financing, their analytical aspects and accounting practice are studied. The issues of forming analytical data in accounting for grouping costs related to the activities of the educational service are covered.

Key words: accounting, higher education institution, account, cost, report, educational activities.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и методические основы учета затрат в высших учебных заведениях. Изучены возникновение расходов, их аналитические аспекты и практика учета при платно-контрактной форме финансирования обучения, которая является наиболее базовой формой финансирования. Освещены вопросы формирования аналитических данных в бухгалтерском учете для группировки расходов, связанных с деятельностью образовательной услуги.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, высшее учебное заведение, счет, себестоимость, отчет, педагогическая деятельность.

KIRISH

Davlat budjeti budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilarni moliyaviy jihatdan ta'minlash hamda davlat xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida tuziladi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasining hisobotiga ko'ra, "Pandemiya va inqiroz sharoitida rivojlangan mamlakatlarda budjet xarajatlari yalpi ichki mahsulotning 40 foizini tashkil qilib, davlat sektoridagi tashkilotlar bandlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan eng katta ish beruvchi hisoblanishi ta'kidlangan"¹. Dunyo amaliyotida davlat sektoridagi tashkilotlarni moliyalashtirish davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishi bevosita ularning hisobini samarali tashkil etish hamda moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlarining shaffofligi bilan bog'liq. Shu sababdan ham jahonning aksariyat mamlakatlarida budjet ijrosi hisobi va hisobotini davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablari asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oliy ta'lim tashkiloti subyektlari faoliyati budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Oliy ta'lim tashkiloti subyektlari budjet mablag'lari sarflanishining eng asosiy nuqtasi hisoblanib, ularda amalga oshirilayotgan xarajatlarning to'g'ri tashkil qilinishi, maqsadli va manzilliligini ta'minlash bevosita budjet tizimining pirovard maqsadi sanaladi. Negaki, oliy ta'lim tashkiloti subyektlarida xarajatlarni to'g'ri hujjatlashtirish va smetalar doirasida amalga oshirish, axborot tizimlari vositasida xarajatlarni guruhlash va tasniflash orqali ular to'g'risida joriy va tezkor axborotlarni shakllantirish Davlat budjeti xarajatlari to'g'risida ishonchli, tahliliy, jamlanma ma'lumotlarni shakllantirish orqali budjet ijrosiga oid zarur qarorlarni qabul qilishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tashkiloti subyektlarida xarajatlar bevosita aktivlar sof qiymatining kamayishi (yoki ularning sarflanishi) va majburiyatlarning ortishi (ko'payishi) natijasida vujudga keladi hamda hujjatlashtirish orqali ularning asosiligi va qonuniyligi ta'minlanadi. O'z navbatida, oliy ta'lim tashkiloti subyektlarida sodir bo'layotgan xarajatlarni tizimlashtirilgan holda uzluksiz qayd etib borish maqsadida ularning hisobi yuritiladi va foydalanuvchilarni axborot bilan ta'minlash uchun moliyaviy hisobotlar shakllantiriladi. Shu boisdan, oliy ta'lim tashkiloti subyektlarida xarajatlar hisobini alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish dolzarb sanaladi.

1 International Monetary Fund (IMF). 2020. Fiscal Monitor: Policies to Support People During the COVID-19 Pandemic. Washington, April. <https://www.imf.org/en/Publications/FM/Issues/2020/04/06/fiscal-monitor-april-2020>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tashkiloti subyektlarida xarajatlar hisobini takomillashtirish borasida xorijiy mamlakatlar olimlari jumlasiga V. V. Avdeev, V. V. Bashkatov, Fernando Belfoni kiritilishi mumkin². O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar S. U. Mehmonov, A. A. Ostonokulov, Z. U. Hamidovalarning asarlarida budjet hisobi, hisoboti va nazoratining nazariy masalalari hamda ularni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha izlanishlar olib borilgan³.

Ammo ushbu ishlarda budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish bo'yicha umumiy mulohazalar berilgan. Ularda oliy ta'lim tashkiloti subyektlarida xarajatlar hisobini takomillashtirish bilan bog'liq muammolar kompleks tadqiqot shaklida alohida o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, statistika, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalaniladi. Tadqiqot o'tkazishda boshlang'ich material sifatida respublika darajasidagi joriy statistika hisobotlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, shuningdek, respublika bo'yicha statistik to'plamlardagi ma'lumotlar, aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlari dastlabki manba sifatida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Budjet tashkilotining rahbari OTMlarda to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar taqsimlovchisi hisoblanadi hamda mazkur mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanish uchun javobgardir. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan o'qitishning kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar va ular sarflanishining buxgalteriya hisobi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda yuritiladi. Xarajatlarni amalga oshirishda mablag'lar birinchi navbatda stipendiya, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, energiya resurslari hamda kommunal xizmatlar haqini to'lash maqsadlariga yo'naltiriladi. Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar xarajatlar smetalarini, daromadlar va xarajatlar smetalarini, shuningdek, shtat jadvallari normativ-huquqiy hujjatlar asosida mustaqil ravishda tuzadilar. Xarajatlar smetalari, daromadlar va xarajatlar smetalari, shtat jadvallari, shuningdek jamlanma xarajatlar smetalari va shtat jadvallari bir moliya yili muddatiga, mavsumiy yoki yil mobaynida tuzilgan tashkilotlar bo'yicha esa, ularning mazkur moliya yilidagi faoliyat ko'rsatish davriga tuziladi va amal qiladi.

Budjet tizimi budjetlari xarajatlarining iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda o'zgacha ko'rsatkichlar va uslublar qo'llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazuvchi tegishli budjet mablag'larini taqsimlovchilar va moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Xarajatlar smetasiga ish haqi uchun o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan lavozim maoshlari va bazaviy mehnatga haq to'lash stavkalari, ularga qo'shimcha to'lovlar va ustamalar hamda amaldagi namunaviy shtatlar va shtat normativlariga rioya etilgan holda kiritiladi.

I-guruhda "Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar" xarajatlari hisobi yuritiladi. Bunda xarajatlar smetasidagi ish haqi uchun qonunchilikda belgilangan maoshlar, ish haqi stavkalari va ularga qo'shimcha to'lovlar, amaldagi namunaviy shtatlar va me'yorlarga rioya qilishdan kelib chiqib kiritiladi. Pedagog xodimlar ish haqi uchun mablag' ajratishda qonunchilikda belgilangan ish haqi stavkalaridan kelib chiqib hisob-kitob qilinadi.

II-guruh "Yagona ijtimoiy to'lovlar" xarajatlari mehnatga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lash xarajatlarini qamrab oladi. Xarajatlar smetasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq belgilangan stavkalarda, qonunchilikka binoan yagona ijtimoiy to'lov to'lanadigan barcha to'lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi. Hozirgi kunda moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalari yagona ijtimoiy to'lovni 12 % miqdorida to'lab kelmoqda.

III-guruh "Kapital qo'yilmalar" xarajatlari oliy ta'lim muassasalarining kapital qo'yilmalari va qurilish xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan.

IV-guruh "Boshqa xarajatlar" yuqoridagi uch guruhdagi xarajat tarkibiga kiritilmagan barcha xarajatlar hisobini o'z ichiga oladi.

OTMlarda ushbu xarajat guruhlari bo'yicha har bir xarajat moddasiga mablag' ajratish orqali joriy moliya yili uchun daromadlar va xarajatlar smetasi shakllantiriladi. Belgilab qo'yilgan xarajat moddasiga ajratilgan mablag' boshqa xarajat moddasiga sarflanishiga yo'l qo'yilmaydi.

2 International Monetary Fund (IMF). 2020. Fiscal Monitor: Policies to Support People During the COVID-19 Pandemic. Washington, April. <https://www.imf.org/en/Publications/FM/Issues/2020/04/06/fiscal-monitor-april-2020>

3 Авдеев В.В. Затраты на изготовление готовой продукции, выполнение работ, услуг в учете бюджетного учреждения. Журнал "Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях". Москва. 2013.; Башкатов В. В., Покусаев В.Ю. Особенности бухгалтерского учета в бюджетных учреждениях. Журнал "Современная наука: актуальные проблемы и пути их решения". Выпуск № 13 / 2014. 320 с.; Fernando Belfo, Antonio Trigo Accounting Information Systems: Tradition and Future Directions. Procedia Technology. Volume 9, 2013, Pages 536-546.



Oliy ta'lim muassasalarining jami 2023-yildagi xarajatlari 231 262,9 mln so'mni tashkil etmoqda. Jami xarajatlarning 26 258,4 millioni yoki 11,4 foizi budjet mablag'lari hisobiga to'g'ri kelmoqda. Jami xarajatlarning 199 882,3 millioni yoki 86,4 foizdan ortiqrog'i to'lov-kontrakt mablag'lari xarajatlariga to'g'ri kelmoqda. Jami yillik xarajatlarning 5 122,2 millioni yoki 2,2 foizi OTMning rivojlantirish mablag'lari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan, moliyaviy mustaqillik berilmagan OTMning 2023-yildagi xarajatlar tarkibini tahlil etadigan bo'lsak, bu OTMda ham xarajatlarning asosiy salmog'i to'lov-kontrakt mablag'lari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Jami 2023-yildagi xarajatlar 230 609,1 mln so'mni tashkil etmoqda. Jami xarajatlarning 66 169,7 millioni yoki 28,7 foizi budjet mablag'lari hisobiga to'g'ri kelgan bo'lsa, jami xarajatlarning 162 241,9 millioni yoki 70,3 foizi to'lov-kontrakt mablag'lari xarajatlariga to'g'ri kelmoqda. Jami yillik xarajatlarning 2 197,5 millioni yoki 1 foizi OTMning rivojlantirish mablag'lari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan xorijiy OTM filialining 2023-yildagi xarajatlar tarkibini tahlil etadigan bo'lsak, bu OTMda xarajatlarning asosiy salmog'i rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Jami 2023-yildagi xarajatlar 29 140,8 mln so'mni tashkil etmoqda. Jami xarajatlarning 9 092,8 millioni yoki 31,1 foizi budjet mablag'lari hisobiga to'g'ri kelmoqda. Jami xarajatlarning 10 968,3 millioni yoki 37,6 foizi to'lov-kontrakt mablag'lari xarajatlariga to'g'ri kelmoqda. Jami yillik xarajatlarning 9 109,7 millioni yoki 31,3 foizi OTMning rivojlantirish mablag'lari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Har bir OTMni solishtiradigan bo'lsak, moliyaviy mustaqillik berilgan OTM bilan moliyaviy mustaqillik berilmagan OTMning asosiy xarajatlari to'lov-kontrakt mablag'lari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi o'rinlarni budjet va rivojlantirish jamg'armalari tashkil etayotganini ko'rishimiz mumkin. Xorijiy OTM filiali xarajatlarning asosiy ulushi rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, keyingi o'rinlardagi xarajatlar to'lov-kontrakt hamda budjet mablag'lari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tahlil natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, hozirgi amaliyotda qaysi turdagi OTM bo'lishiga qaramay, budjet mablag'lari xarajatlari oxirgi o'rinni egallamoqda. Asosiy o'rin to'lov-kontrakt mablag'lari xarajatlariga to'g'ri kelayotgani, budjet mablag'lari xarajatlarni qisqartirish yoki boshqacha aytganda, budjet mablag'laridan foydalanishni maqbulashtirib, asosiy sarf-xarajalar budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, OTMlarga moliyaviy mustaqillik berilishining asosiy omillaridan biridir.

Rasmni tahlil etadigan bo'lsak, moliyaviy mustaqillik berilgan hamda moliyaviy mustaqillik berilmagan OTMning oxirgi 5 yillik to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan qilingan xarajatlari faqat o'sish tendensiyasiga ega. Jumladan, moliyaviy mustaqillik berilgan OTMda 2019-yilda to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar 58 815,4 mln so'm bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu xarajatlar 51 838,9 mln so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 11,8 foizga kamaygan. 2021-yilda esa bu ko'rsatkich 147 719,0 mln so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 1,5 barobarga ko'paygan. 2022-yilda bu ko'rsatkich 162 210,5 mln so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 2,7 barobarga ko'paygan.

2023-yilda bu ko'rsatkich eng yuqori cho'qqiga yetib, 199 882,3 mln so'mni tashkil etgan hamda 2019-yildagi xarajatlarga nisbatan qariyb 4 barobarga ko'paygan. Oxirgi ikki yilda to'lov-kontrakt mablag'lari xarajatlarning yuqori darajada o'sishining asosiy sababi sifatida moliyaviy mustaqillik berilganligini ko'rsatib o'tish o'rinlidir.

Moliyaviy mustaqillik berilmagan OTMda 2019-yilda to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar 23 353,7 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu xarajatlar 45 617,0 mln so'mga yetib, 2019-yilga nisbatan 1,9 barobarga oshgan. 2021-yilda bu ko'rsatkich 63 907,9 mln so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 2,7 barobarga oshgan. 2022-yilda bu ko'rsatkich 134 810,2 mln so'mni tashkil etib, 2019-yilgi xarajatlarga nisbatan 5,7 barobarga ko'paygan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 5 yil davomida eng yuqori darajaga yetib, 162 241,9 mln so'mni tashkil etgan hamda 2019-yilgi xarajatlarga nisbatan 6,9 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Xorijiy OTM filialining to'lov-kontrakt mablag'lari xarajatlarni tahlil etadigan bo'lsak, 2019-yilda 8 358,5 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu xarajatlar 7 378,4 mln so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 11,7 foizga kamaygan. 2020-yilda esa bu ko'rsatkich 7 178,4 mln so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 14 foizga kamaygan. 2021-yilda bu ko'rsatkich 9 180,4 mln so'mni tashkil etib, 2019-yilgi xarajatlarga nisbatan 9,8 foizga ko'paygan. 2022-yilda bu ko'rsatkich 12 388,0 mln so'mni tashkil etib, 2019-yilgi xarajatlarga nisbatan 48 foizga ko'paygan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan biroz kamayib, 10 968,3 mln so'mni tashkil etgan hamda 2019-yilgi xarajatlarga nisbatan 31 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

O'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan amalga oshirilayotgan xarajatlarning yildan-yilga oshib borishining sababi sifatida oliy ma'lumotga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatish mumkin. Qolaversa, 40 ta OTMga moliyaviy mustaqillik berilishi bu raqamlarning yanada ortishiga olib keldi. Bu esa OTM hisob ishlarida amalga oshirilayotgan xarajatlarni belgilangan guruhlar va moddalari bo'yicha to'g'ri yuritish mas'uliyatini yanada oshiradi.

O'qitishning to'lov-kontrakt shakli bo'yicha mablag'larning hisoblanishi 153600 – "Budjet tashkilotlarining



talabalar bilan boshqa debitor qarzlari” subschyotining debetida va 520200 – “Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o’qitishning to’lov-kontrakt mablag’lari bo’yicha hisoblangan daromadlar” subschyotining kreditida, mablag’larning kelib tushishi esa 102409 – “Ta’lim muassasalarida o’qitishning to’lov-kontrakt shaklidan tushumlar” subschyotining debetida va 343600 – “Budget tashkilotlarining talabalar bilan boshqa kreditor qarzlari” subschyotining kreditida aks ettiriladi. Analitik hisob har bir talaba bo’yicha alohida yuritiladi. Stipendiya oluvchi talabalar bilan hisob-kitoblar 343500 – “Budget tashkilotlarining stipendiya oluvchilar bilan kreditor qarzlari” subschyotida yuritiladi. Hisoblangan stipendiya summalari 343500 – “Oliy ta’lim stipendiya oluvchilar bilan kreditor qarzlari” subschyotining kreditiga yoziladi (1-jadval).

1-jadval. O’qitishning to’lov-kontrakt shakli mablag’larining xarajatlari muomalalari mazmuni⁴.

T/r	Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
1.	Turli tashkilotlardan sotib olingan tovarlar va xizmatlarga kontrakt mablag’lari hisobidan to’lovlar amalga oshirildi.	151 900	102 409
2.	To’lov-kontrakt mablag’lari bo’yicha xodimlarga ish haqi hisoblandi	730 000	343 400
3.	To’lov-kontrakt mablag’lari bo’yicha yagona ijtimoiy soliq hisoblandi	730 000	152 200
4.	To’lov-kontrakt mablag’lari bo’yicha xodimlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig’i hisoblandi	343 400	152 100
5.	To’lov-kontrakt mablag’lari bo’yicha xodimlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig’i hisoblandi JBPJ hisoblandi	152 100	152 300
6.	Hisoblangan daromad solig’i to’lab berildi	152 100	102 409
7.	Yagona ijtimoiy soliq to’lab berildi	152 200	102 409
8.	JBPJ to’lab berildi	152 300	102 409
9.	To’lov-kontrakt mablag’lari bo’yicha xodimlarga hisoblangan ish haqidan kasaba uyushmasi badali hisoblandi	343 400	343 700
10.	Hisoblangan kasaba uyushmasi badali to’lab berildi	343 700	102 409
11.	Hisoblangan ish haqi plastik karta orqali to’lab berildi	343 400	102 409
12.	To’lov-kontrakt mablag’lari bo’yicha talabalarga stipendiya hisoblandi	730 000	343 500
13.	Hisoblangan stipendiya plastik karta orqali to’lab berildi	343 500	102 409
14.	Ortiqcha to’langan kontrakt summasi qaytarildi	102 409	730 000

Oliy ta’lim muassasalarining buxgalteriya hisobi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to’g’risidagi yo’riqnomaga asosan yuritiladi. Unga ko’ra, o’qitishning to’lov-kontrakt shakli mablag’lari hisobi bo’yicha OTMlarda har yil boshida daromadlar, ya’ni ko’zda tutilayotgan tushumlar va xarajatlar, ya’ni to’lov-kontrakt shaklidan sarflanadigan mablag’lar smetasi shakllantiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

OTMlarda to’lov-kontrakt mablag’lari xarajatlari va ularni hisobga olish amaliyotini o’rganish asosida quyidagicha xulosalar qilish mumkin.

Moliya yili uchun shakllantirilgan xarajatlar o’quv yili uchun tushgan daromadlar hisobidan amalga oshirilmoqda. 31-dekabr, moliya yili tugagan muddatda, o’quv yilining to’rt oyi o’tgan bo’ladi. Bunda joriy o’quv yilining 1-semestri uchun to’langan to’lov-kontrakt summalari joriy moliya yilining daromadi sifatida hisobga olinmoqda va hisobotlar shu asosda shakllantirilmoqda. Biroq, bu tushumning ikki oylik qismi keyingi moliya yilining dastlabki ikki oylik tushumi sifatida hisobga olinganida, tuzilayotgan hisobotlarning aniqligi kafolatlangan bo’lardi.

Daromadlar joriy o’quv yiliga tegishli bo’lganidan keyin, xarajatlar ham aynan shunga moslashtirilishi lozim. Joriy moliya yili uchun shakllantirilgan xarajatlar smetasi doirasida xarajatlar aynan shu yilda amalga oshirilmoqda. Agar joriy o’quv yilining 1-semestri uchun to’langan to’lov-kontrakt summalari olti oylik xarajatlarni qoplashi kerakligi nuqtayi nazaridan qaraladigan bo’lsa, bu amalda bajarilmayapti. Chunki taqsimlangan olti oydan to’rtinchi oyida moliya yili yakuniga yetmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarining faoliyati o’quv yili bilan bog’liq bo’lganini hisobga olib, daromadlar va xarajatlar smetasi aynan o’quv yili uchun shakllantirilsa, natijada oliy ta’lim muassasalarida to’lov-kontrakt shakli mablag’lari bo’yicha daromadlar, xarajatlar hamda ularning shakllantirilayotgan hisobotlarida yuqori aniqlikka erishiladi.

4 Mehmonov S.U., Kuliboyev A.Sh. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg’armalari hisobi. O’quv qo’llanma, “Iqtisod-moliya” 2018. 186 b.; Ostonokulov A.A. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag’lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. iqt. fan. dok. dis. avtoreferati. –T.: 2021. – 72 b.; Xamidova Z.U. Byudjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari faoliyatini samarali tashkil qilish masalalari. Monografiya. – T.: “VNESHINVESTPROM” 2021. 183 b.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Pespublikasining "Budjet Kodeksi" (O'zP 26.12.2013y. O'RQ- 360-son Qonuni bilan tasdiqlangan), <http://www.lex.uz>
2. O'zbekiston Pespublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son Qonuni, <https://www.lex.uz>.
3. International Monetary Fund (IMF). 2020. Fiscal Monitor: Policies to Support People During the COVID-19 Pandemic. Washington, April. <https://www.imf.org/en/Publications/FM/Issues/2020/04/06/fiscal-monitor-april-2020>
4. Авдеев В.В. Затраты на изготовление готовой продукции, выполнение работ, услуг в учете бюджетного учреждения. Журнал "Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях". Москва. 2013.
5. Башкатов В. В., Покусаев В.Ю. Особенности бухгалтерского учета в бюджетных учреждениях. Журнал "Современная наука: актуальные проблемы и пути их решения". Выпуск № 13 / 2014. 320 с.
6. Fernando Belfo, Antonio Trigo Accounting Information Systems: Tradition and Future Directions. Procedia Technology. Volume 9, 2013, Pages 536-546.
7. Mehmonov S.U., Kuliboyev A.Sh. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobi. O'quv qo'llanma, "Iqtisod-moliya" 2018. 186 b.
8. Ostonokulov A.A. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. iqt. fan. dok. dis. avtoreferati. –T.: 2021. – 72 b.
9. Xamidova Z.U. Budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari faoliyatini samarali tashkil qilish masalalari. Monografiya. – T.: "VNESHINVESTPROM" 2021. 183 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
